
OROMGOH MAVSUMGA TAYYORLANMOQDA

Yozgi oromgohlar bolajonlar uchun eng sevimli maskandir. Chunki ular bolalik davrining eng baxtli va quvonchli damlarini ana shunday joylarda, o'z tengqurlari bilan birga, jo'shqin lahzalar bilan tasavvur etadi.



Hozirda tumandagi "Yulduz" bolalar oromgohi bolajonlar uchun shay holatga keltirilmoqda. Chet tillar, shaxmat va shashka sport to'garagi, musiqa, kompyuter, "Yosh kitobxon", tikuvchilik to'garaklari, ma'naviyat xonalari barcha sharoitlar bilan ta'minlanmoqda.

Tuman hokimi Sh.Turdaliyev mazkur oromgohda bo'lib bolajonlarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Unda oromgohni namunali tashkil qilish, kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berildi.

Oromgohda 3 bosqichda 120 nafardan jami 360 nafar bolajonlarning maroqli dam olishlari rejalashtirilgan.



Bolajonlarning ma'naviy saviyasini kengaytirish, tasavvurlarini boyitish maqsadida ma'naviyat xonalari tashkil etilib, gazeta, jurnal, turli badiiy adabiyotlar bilan to'ldirishga alohida urg'u berildi.

Tuman hokimining ko'rsatmasiga asosan hozirda yuvinish xonalari yangitdan zamonaviy usulda qurilmoqda. Shuningdek, hojatxonalar ham talab darajasida jihozlanmoqda. Yotoqxonalar yangi ko'rpa-yostiq, choyshablar, antiseptik vositalar, qolaversa, bolajonlarning salomatligi yo'lida dori-darmonlar bilan yetarlicha ta'minlanmoqda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-05-17 17:08:51